

OLIY TA'LIM MUASSASALARI MOLIYAVIY RESURSLARI SHAKLLANISH TIZIMINI BOSHQARISH AMALIYOTINING TAHLILI

PhD **Karlibaeva Gulshat**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0002-8724-9337

Annotatsiya. Hozirgi sharoitda aksariyat O'zbekiston oliv ta'lismuassasalarida akademik faoliyatning rivojlanishi ular daromadlarining shakllanishida to'lov-shartnoma asosidagi daromadlarning jami daromadlardagi ulushining yuqori ko'rsatkichini ta'minlamoqda. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti faoliyatini moliyalashtirishda to'lov-shartnoma faoliyatidan tushumlar yetakchi rol o'yinaydi. Bu, o'z navbatida, faoliyat aspektrini kengaytirish va diversifikasiya qilish bilan bog'liq tizimli islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Tahlillar, oliv ta'lismuassasalarida moliyaviy rejalashtirish tizimi universitetlar joriy rivojlanishi bilan bog'liq taktik vazifalarni real holatda to'liq hisobga olmaydi. Ushbu holat oliv ta'lismuassasalarida moliyaviy rejalashtirish tizimini zamonaviy shart-sharoitlarga asoslangan holda takomillashtirishni va ilg'or usullarni joriy qilishni taqozo qiladi.

Kalit so'zlar: oliv ta'lismuassasalar, moliyaviy resurslar, moliyaviy va akademik mustaqillik, ta'lismizmatlari, daromad va xarajatlar, byudjet manbalari, profitsit, to'lov-shartnoma mablag'lari.

АНАЛИЗ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ СИСТЕМОЙ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

PhD **Карлибаева Гулшат**
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В современных условиях развитие академической деятельности в большинстве высших учебных заведений Узбекистана обеспечивает высокий показатель доли платно-контрактной основы в общем объеме доходов при формировании их доходов. Доходы от платно-контрактной деятельности играют ведущую роль в финансировании деятельности Ташкентского государственного экономического университета. В свою очередь, это требует проведения системных реформ, связанных с расширением и диверсификацией сферы деятельности. Анализ показывает, что система финансового планирования в высших учебных заведениях не в полной мере учитывает тактические задачи, связанные с текущим развитием университетов. Данная ситуация требует совершенствования системы финансового планирования в высших учебных заведениях с учетом современных условий и внедрения передовых методов.

Ключевые слова: высшие учебные заведения, финансовые ресурсы, финансовая и академическая независимость, образовательные услуги, доходы и расходы, бюджетные источники, профицит, платно-контрактные средства.

ANALYSES OF THE HONE OF OVERSEEING THE FRAMEWORK OF ARRANGEMENT OF FINANCIAL RESOURCES OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

*PhD Karlibaeva Gulshat
Tashkent State University of Economics*

Abstract. In Uzbekistan, many universities are making a lot of money from students' fees. Income from payment contracts is the main way Tashkent State University of Economics funds its activities. This means we need to make big changes to expand and diversify what we do. The study found that colleges and universities don't properly consider the important tasks needed for their growth when planning their finances. This situation needs better money planning in colleges and universities, using new methods that fit today's needs.

Key words: higher education institutions, financial resources, financial and academic independence, educational services, income and expenses, budget sources, extra money, paid-contract funds.

Kirish.

Jahonda kuchayib borayotgan global miqyosdagi raqobat sharoitida rivojlangan mamlakatlar YaIMda oliy ta'lim muassasalarining kompleks rivojlanishiga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi ulushini o'stirib borish amaliyoti yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ta'lim tizimida oliy ta'limgardan rivojlanish darjasini har bir mamlakatning kadrlari intellektual salohiyatini mustahkamlanishiga, yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish imkoniyatiga ega innovatsion tarmoqlarning rivojlanishiga mustahkam zamin yaratmoqda. "Ta'lim xizmatlari bozori dunyodagi eng yirik tarmoqlardan biri bo'lib, jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 6% dan ortig'ini tashkil etadi. 2021-yilda jahon ta'lim xizmatlari bozorining hajmi, rasmiy manbalarga ko'ra, 6,5 trillion dollarga yetgan, Shundan, global ta'lim texnologiyalari (EdTech) bozorining hajmi esa 270 milliard dollarni tashkil etdi. Bu ekspertlar hisob-kitoblariga ko'ra, umumiy ta'lim xizmatlari bozorining atigi 4 foizidan sal ko'proqni tashkil qiladi. Ushbu ko'rsatkich 2020 yilda qariyb 3,6% ni tashkil etgan. 2022 yilda global EdTech bozori hajmining 12% o'sishini hisobga olsak ham, 2022 yil oxirida onlayn ta'lim bozorining ulushi umumiy bozor hajmining 5,5% ini tashkil qilganligini anglatadi³⁰". Ta'lim xizmatlari bozorida onlayn ta'lim texnologiyalarining rivojlanishida esa oliy ta'lim tizimi muhim rol o'ynagan.

Adabiyotlar sharhi.

O'r ganishlar natijasida, Karaseva (2006) moliyaviy rejalashtirishni kelajakdagi daromadlar va xarajatlarni boshqarish sifatida belgilaydi, Gryaznova (2012) moliyaviy siyosatni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmui sifatida Likhacheva (2003) moliyaviy rejalashtirishni tashkilotdagi umumiy boshqaruv tizimining bir qismi sifatida ko'rib chiqmasdan, "molivaviy rejalashtirish" tushunchasini faqat tahlil nuqtai nazaridan belgilaydi. Lapusta va Kolmykova (2002) moliyaviy rejalashtirishning mohiyatini ochib berishda ular uning jarayon mohiyatidan kelib chiqadi.

Adam Smit (2009) shotland iqtisodchisining "bozorning ko'rinnmas qo'li" iborasi bo'lib, u resurslarni taqsimlashda samarali dastak vazifasini o'taydigan tizimning avtonomiysi va o'zini o'zi ta'minlashini ko'rsatish uchun ishlatgan. Uning mohiyati shundaki, o'z manfaatiga faqat birovning ehtiyojlarini qondirish orqali erishish mumkin. Shunday qilib, bozor ishlab chiqaruvchilarni boshqa odamlarning manfaatlarini ro'yobga chiqarishga va bиргаликда butun jamiyatning boyligini oshirishga "turtki bo'ladi". Shu bilan birga, resurslar foydaning "signal tizimi" ta'sirida talab va taklif tizimi orqali ularidan foydalanish eng samarali bo'lgan sohalarga o'tadi. Adam Smit (2009) har bir ishlab chiqarish omili – ta'lim, ish haqi va foiz uchun ma'lum bir

³⁰ IIASA, VID/ÖAW, WU. <https://habr.com/ru/articles/675612/>

"tabiiy" narx darajasini belgilash muammosini ko'rib chiqadi. Bu darajalar "tabiiy" narx nazariyasiga uchun fundamental ahamiyatga ega edi, chunki har qanday mahsulotning narxi har bir omilning "tabiiy" daromad darajalarining yig'indisi bo'lsa, "tabiiy" hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada turli hil usullardan foydalanildi. Oliy ta'limga muassasalarini moliyalashtirish va monitoring tizimini boshqarish bilan bog'liq moliyaviy munosabatlar bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, tizimli va statistik tahlil, taqqoslash, solishtirma tahlil, ilmiy bashoratlash va mantiqiy yondashuv usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Har bir tadbirkorlik sub'yehti kabi moliyaviy mustaqillikka ega bo'lgan oliy ta'limga muassasalarida ham moliyaviy resurslarning shakllanish tizimida umumiy va xususiy o'ziga xosliklar mavjud bo'ladi.

Umumiy xususiyatlardan sifatida moliyaviy resurslar shakllanishinining 3 ta asosiy manbaini kuzatish mumkin:

1. Xususiy moliyaviy resurslar manbai. Bunda eng asosiy faoliyat universitetlar uchun ta'limga xizmatlarini samarali taklif qilish, ilmiy tadqiqot faoliyati bo'yicha natijalarini tijoratlashtirish va boshqa faoliyatlar bilan bog'liqdir. Bu faoliyatlardan keladigan daromadlar va tushumlarni kiritish imkoniyati mavjud.

2. Ta'limga xizmatlarini taqdim etish, ilmiy tadqiqot faoliyati natijalarini tijoratlashtirish va boshqa tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish natijasida keladigan mablag' va tushumlarni kiritish mumkin bo'ladi.

3. Moliyaviy bozorlardan jalb qilinadigan moliyaviy resurslar manbai. Ushbu manba, ayni paytda keng spektrdagi tadbirkorlik subyektlari tomonidan eng faol foydalaniladigan instrumentlarni o'z ichiga olib, moliyaviy resurslar harakatidagi eng yirik yo'nalishni o'zida mujassamlashtiradi. Hozirgi sharoitda O'zbekiston oliy ta'limga muassasalarida moliyaviy bozorlardan jalb qilinadigan moliyaviy resurslar, asosan, kredit instrumentlari shaklida amalga oshirilmoqda.


4. Qayta taqsimlash vositasida kelib tushadigan moliyaviy resurslar manbalari. Ushbu manba oliy ta'limga muassasalarini moliyaviy resurslari shakllanishida yaqin tarixiy retrospektivada eng asosiy manba hisoblangan. Ushbu manbaga davlat byudjeti tomonidan ajratiladigan grantlar, subsidiyalar, maqsadli jamg'armalar ajratmalar, sug'urta qoplamlari va beg'araz tushumlar nazarda tutiladi.

Zamonaviy sharoitlarda oliy ta'limga muassasalariga berilayotgan moliyaviy va akademik mustaqillik sharoitida universitetlarni moliyalashtirishning zamonaviy instrumentlaridan keng foydalanishga shart-sharoit yaratilmoqda.

Avvalo, qayta taqsimlash vositasida kelib tushadigan moliyaviy resurslar manbalari tarkibidagi byudjet grantlari va subsidiyalarini mexanizmini ko'rib o'tadigan bo'lsak, ushbu manbaning keyingi yillarda O'zbekiston oliy ta'limga muassasalarini moliyaviy resurslari manbalari tarkibida ham pasayib borayotganligini kuzatish mumkin.

Ushbu 1-rasmida byudjetdan moliyalashtirish mexanizmi 3 ta kanalli moliyaviy reurslar harakatini o'zida mujassamlashtiradi. Birinchi kanal o'zida joriy xarajatlarni moliyalashtirishni mujassamlashtirib, iqtisodiy tasnif bo'yicha bu I va II guruh xarajatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq ushbu xarajatlarni moliyaviy ta'minlash uchun ajratilgan mablag'lar, asosan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar va ish haqiga (Qaror, 1999) qo'shimchalarni o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu xarajatlarni moliyalashtirish uchun sarflanadigan byudjet mablag'lari universitetlar operatsion faoliyatining uzluksizligi, professor-o'qituvchilar va xodimlar mehnatini rag'batlantirishni o'zida mujassamlashtiradi.

Oliy ta'lim muassasalarini byudjetdan moliyalashtirish mexanizmi



1-rasm. Oliy ta'lim muassasalarini davlat byudjetidan moliyalashtirish mexanizmining tashkiliy tuzilmasi³¹

Shartnomalar asosida moliyalashtirish uchun ajratiladigan byudjet mablag'lari universitetlarning me'yordagi faoliyati uchun qo'shimcha xizmatlarni sotib olish natijasida vujudga keladigan yuridik majburiyatlar.

3-guruhdagi xarajatlarda investitsiyalarni moliyalashtirish, universitetlar texnik bazasini takomillashtirish, kapital qurilish xarajatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Umuman, har uchala kanalga asoslangan moliyalashtirish mexanizmi elementlari turlicha bo'lib, ushbu moliyalashtirish uchun shakllantiriladigan mablag'lar byudjetdan ajratilishi ko'zda tutiladigan bo'linsa, bunday holatda ushbu tushumlar yoki daromadlar faoliyatning turli jihatlarini muvozanatli rivojlantirish vazifasini bajaradi.

Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, byudjet mablag'lari universitetlar uchun ajratiladi va ular notijoriy operatsion faoliyatni tarkibiy rivojlantirish, shuningdek, rivojlanish yoki investitsion byudjetini shakllantirish muammolarni ham hal etishi mumkin. Universitetlar moliyalashtirish mexanizmi orqali xarajatlarni moliyalashtirish elementlari bilan bir-biridan farqlanadi. Xususan, davlat universitetlarida tasdiqlangan smeta doirasidagi 1 va 2-guruh xarajatlari bo'yicha avtomatik tarzda yuridik majburiyatlar yuzaga keladi, hisobot oyining oxiri va yangi navbatdagi oyning boshida moliyaviy majburiyatlarning yuzaga kelishi avtomatik tarzda kuzatiladi. Lekin 3 va 4-guruh xarajatlari tuzilgan shartnomalar va ushbu shartnomalar asosida ko'rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlarning yakuni bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish mexanizmi ishga tushadi.

Oliy ta'lim muassasalarining daromadlari zamonaviy iqtisodiyotda sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda. "Oliy ta'lim muassasalarining daromadlari" tushunchasi va mavjud tasniflari o'r ganilganda, daromadni moliyaviy nuqtayi nazaridan aniqlash mumkin. Iqtisodiy nuqtayi nazardan daromad "pul va boshqa qiymatlar ko'rinishidagi har qanday faoliyat natijasida olingan moliyaviy mablag'lar" (Rayzberg & Lozovskiy, 2007) hisoblanadi. Daromad – ma'lum bir

³¹ Rasm muallif tomonidan shakllantirilgan.

sub'yeqtning foydasini tashkil etuvchi va uning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydigan turli xil iqtisodiy faoliyat turlarini amalga oshirish natijasida hosil bo'lgan pul mablag'lari hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarining daromadlari iqtisodiy faoliyat doirasi bilan belgilanadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Oliy ta'lim muassasasining daromadlari guruhiga pul mablag'larining kirib kelishi, ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarning bir vaqtning o'zida yuzaga kelishi, oliy ta'lim muassasalari faoliyatining moliyaviy natijasini belgilaydigan ilmiy-tadqiqot ishlari ham uning muhim qismi hisoblanadi. Quyidagi jadvalda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti daromadlari tarkibi tahlili keltirilgan. Unda asosiy daromadlarning yuqori salmog'i to'lov-kontraktlari shaklidan tushadigan daromadlarga to'g'ri kelishini ko'rish mumkin.

Quyida keltirilayotgan jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti jami daromadlari nominal mazmunda 2021-yilda 268917,9 mln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yida ushbu ko'rsatkich 299809,5 mln. so'mga yetgan. 2023-yilgi daromadlar 311120,9 mln. so'mni tashkil qildi.

1-jadval

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti daromad va xarajatlari tahlili, mln so'm³²

№	Moliyalashtirish manbai	2021-yil		2022-yil		2023-yil (kutilayotgan)		2021-yilga nisbatan 2023 yildagi o'sish, %da	
		Daromadlar	Harajatlari	Daromadlar	Xarajatlari	Daromadlar	Xarajatlari	Daromadlar	Xarajatlari
1.	Byudjetdan ajratilgan mablag'lari	24252,1	24121,2	32899,5	32676,1	46168,7	46168,7	190,4	191,4
2.	To'lov-shartnoma mablag'lari	211456,9	184562,1	228795,6	186687,1	212719,1	381370,1	100,6	206,6
3.	Qo'shma ta'lim dasturlari mablag'lari	24565,4	20145,9	27111,3	24663,2	36781,9	38972,2	149,7	193,4
4.	Innovatsiya jamg'arma mablag'lari	2101,4	1998,5	2401	2561,9	5689,1	4320,8	270,7	216,2
5.	Rivojlanadirish jamg'arma mablag'lari	6542,1	4754,4	8602,1	6994,6	9762,1	12562,1	149,2	264,2
Jami:		268917,9	235582,1	299809,5	253582,9	311120,9	483393,9	115,7	205,2
Moliyaviy holat		Profitsit		Profitsit		Defitsit			

Jami daromadlarning tarkibidan ko'rish mumkinki, to'lov-shartnoma asosida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish vositasida olingen daromadlar 2021-yilda 211456,9 mln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib, ushbu daromadlarning nominal qiymati 212719,1 mln. so'mni tashkil qilishi kutilmoqda. Xuddi shuningdek, jami yillik xarajatlar 2021-yilda 235582,1 mln. so'mni tashkil qilgan. 2023-yilga kelib, esa, ushbu ko'rsatkich 483393 mln. so'mni tashkil qildi.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, 2021-2022-yillarda TDIU daromadlar va xarajatlar byudjeti profitsit bilan ijro etilgan, 2023-yilgi kutilayotgan natijalar yuqori darajadagi xarajatlar natijasida defitsit bilan ijro etilgan. Lekin shunga qaramasdan, daromad va xarajat ko'rsatkichlarining qat'iy nazorati, pirovardida, profitsit bilan ijro etilishi kutilishi prognoz qilingan.

³² Jadval muallif tomonidan shakllantirilgan.

2021-yilga nisbatan 2023-yildagi jami daromadlarning dinamik o'sishi 115,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bunda byudjetdan ajratilgan mablag'larning o'sishi (190,4 foiz) va Innovatsion jamg'arma mablag'lari (270,7 foiz) ta'siri vazni yuqori bo'lgan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rsatilganidek, daromadlarning nominal qiymati bo'yicha o'sishda innovatsion jamg'arma mablag'larining o'sish sur'ati yuqori bo'lsa-da, jami daromad o'sish sur'atining past ko'rsatkichi ushbu daromadlarning jami daromadlaridagi ulushining past ko'rsatkichiga bog'liq bo'lganligi kuzatilgan.

2-jadval

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti daromad va xarajatlari salmog'ining tahlili, jamiga nisbatan foizda³³

№	Moliyalashtirish manbai	2021-yil		2022-yil		2023-yil	
		Daromadlar	Harajatlar	Daromadlar	Xarajatlar	Daromadlar	Xarajatlar
1.	Byudjetdan ajratilgan mablag'lar	9,0	10,2	11,0	12,9	14,8	9,6
2.	To'lov-kontrakt mablag'lari	78,6	78,3	76,3	73,6	68,4	78,9
3.	Qo'shma ta'lim dasturlari mablag'lari	9,1	8,6	9,0	9,7	11,8	8,1
4.	Innovatsiya jamg'arma mablag'lari	0,8	0,8	0,8	1,0	1,8	0,9
5.	Rivojlantirish jamg'arma mablag'lari	2,4	2,0	2,9	2,8	3,1	2,6
Jami:		100	100	100	100	100	100

Daromadlar tarkibidan ko'rish mumkinki, 2021-2023-yillarda jami daromadlarda to'lov kontraktdan tushumlarning ulushi yuqori bo'layotgan kuzatilmoxda.

3-jadval

Davlat oliy ta'lim muassasalarining daromadlari va xarajatlari to'g'risida ma'lumot³⁴ (2022-yil 1-yanvar holatiga), mln. so'm.

№	Oliy ta'lim muassasasi nomi	JAMI daroma dlar	Daromadlar						Jami xarajatlar	
			Byudjet mablag'lari		To'lov shartnoma mablag'lari bo'yicha daromadlar		Rivojlantirish mablag'lari bo'yicha daromadlar			
			Mln. so'm	%da	Mln. so'm	%da	Mln. so'm	%da		
1	Andijon davlat universiteti	211774,4	47114,2	22,2	161381,5	76,2	3278,7	1,5	225149,7	
2	Buxoro davlat universiteti	251734,4	59508,7	23,6	187932,4	74,7	4293,3	1,7	244807,8	
3	Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti	113036,6	37587,4	33,3	67320,6	59,6	8128,6	7,2	101612,4	
4	Toshkent davlat texnika universiteti	276072,1	68127,7	24,7	152864,8	55,4	55079,6	20,0	253241,9	
5	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	237406,5	19794,3	8,3	212236	89,4	5376,2	2,3	188113,4	
6	Toshkent moliya instituti	137400,2	14233,5	10,4	119490,1	87,0	3676,6	2,7	115954,7	
7	Jizzax politexnika instituti	92884,2	29174,7	31,4	61401	66,1	2308,5	2,5	83638,7	
8	Qarshi davlat universiteti	232780,1	40197,9	17,3	190656,4	81,9	1925,8	0,8	170979,6	
9	Samarkand davlat universiteti	216655,3	60160,7	27,8	154121,2	71,1	2373,4	1,1	228883,5	
10	Termiz davlat universiteti	251213	47265,5	18,8	201242	80,1	2705,5	1,1	225929,1	
11	Guliston davlat universiteti	167513,8	35978,7	21,5	129889,8	77,5	1645,3	1,0	107812,8	
12	Farg'ona davlat universiteti	233457,7	50488,5	21,6	180850,8	77,5	2118,4	0,9	187662,2	
13	Urganch davlat universiteti	308789	58543,1	19,0	246335,7	79,8	3910,2	1,3	312348,3	
14	Qoraqalpoq davlat universiteti	286133,5	55879,8	19,5	227983,1	79,7	2270,6	0,8	234021,5	

³³ Jadval muallif tomonidan shakllantirilgan.

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari.

Lekin tahlil qilinayotgan davrlarda to'lov kontrakt mablag'lari 2021-yilda 78,6 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 68,4 foizga pasaygan. Ushbu tendentsiyani boshqa referent universitetlar bilan taqqoslaydigan bo'lsak quyidagi manzaraning guvohi bo'lish mumkin.

Jadval ma'lumotlarida ko'rsatilganidek, byudjet mablag'lari bo'yicha moliyalashtirish Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, Jizzax politexnika instituti, Samarqand davlat universiteti, Toshkent davlat texnika universitetlarida 24-33%gacha bo'lib, yuqori salmoqqa ega. To'lov-shartnoma mablag'lari bo'yicha tushumlari: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent moliya instituti, Andijon davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Namangan davlat universiteti, Qarshi davlat universitetlarida 81-89% foiz diapazonida tebranmoqda.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq O'zbekiston oliv ta'lm muassasalarida Rivojlantirish mablag'larini shakllantirish belgilangan bo'lib, ushbu fondning daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantirilishi ko'zda tutilgan³⁵:

- hisobot choragining so'nggi ish kunida, xarajatlar smetasiga muvofiq, tejalgan mablag'larni kiritish amalga oshiriladi. Bu mablag'lar, asosan, universitetning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga yo'naltiriladigan kapital qo'yilmalarini moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Ushbu kategoriyadagi daromadlar hisobiga kiritilgan mablag'lar boshqa maqsadlar uchun ishlatilmaydi;

- faoliyat ixtisosligi bo'yicha xizmatlar va ishlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar faoliyatning tijoriy aspektidan keladigan mablag'lardir. Umuman, ushbu daromadlar kategoriyasiga hozirgi sharoitda universitetlar ilmiy tadqiqot faoliyatini tijoratlashtirish, pullik maslahat xizmatlarini taqdim etish, maxsus kursslarni tashkil qilishdan tushumlar va xo'jalik shartnomasi asosidagi tushumlar kiritiladi;

- tashkilotlar byudjeti balansida turgan mol-mulkni ijara berishdan olingan mablag'lar byudjet tashkilotining moliyalashtirish mexanizmi orqali ishlatiladi;

- belgilangan tartibda byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag'lar ayrim maqsadlarni amalga oshirish uchun ajratiladi;

- homiylikdan olingan mablag'lar hisobidan shakllantiriladi.

Byudjet tashkilotlari xodimlarning mehnat intizomini buzganligi sababli qo'llanilgan jarimalar byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamiyatiga aylantirish manbai bo'lib, ushbu jarimalarning summasi tegishli byudjet daromadiga o'tkaziladi. Bu ish haqi xarajatlari O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi va byudjetdan mablag' oluvchilarga tadbiq etiladi. Umuman, xulosa qilish mumkinki, zamonaviy sharoitlarda O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan universitetlarda moliyalashtirishning asosiy manbai ta'lim xizmatlarini tijoratlashtirish, to'lov shartnomalaridan tushadigan mablag'larga bog'liq bo'lmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari daromadlarining ahamiyati ular faoliyatida yuqori bo'lib, daromad manbalari va turlari bilan belgilanadi. Ilmiy manbalarda daromadlarning ko'p sonli tasniflari keltirilgan, ularning keng ko'lamli, hamma jihatini qamrab oluvchi xususiyatini ta'kidlash maqsadga muvofiq. Tadqiqot natijalari bo'yicha, oliy ta'lim muassasalari daromadlarining tasnifi oliy ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy mazmunini aks ettirishi kerak. Shuningdek, ta'lim xizmatlari uchun belgilangan tabaqalashtirilgan to'lov shartnoma qiymati ham universitetlar umumiyl moliyaviy resurslari tarkibidagi to'lov shartnoma mablag'larining qiymatining shakllanishiga ta'sir etadi. Bundan tashqari, davlat ehtiyojlari uchun kadrlar tayyorlashga ehtiyojning tabaqalashtirilgan tizimi ham oliy ta'lim muassasalari yillik byudjeti tarkibida daromadlar ulushining shakllanishiga ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalari faoliyatining mohiyatini, ularning moliyaviy natijalarini belgilaydigan asosiy guruqlar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sen qarori // 01.01.2023 y., 07/23/471/0001-son bilan yangilangan // <https://lex.uz/docs/319286>

- birinchidan, bir yoki bir nechta ta'lim dasturlarini, mazmunini, talabalarni tarbiyalashni amalga oshirish;
- ikkinchisi, ilmiy ishlarini olib borish;
- uchinchisi, o'quv va tadqiqot jarayonini ta'minlash hamda unga xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyat hisoblanadi;
- turli faoliyatlar: bu oliy ta'lim muassasalariga ruxsat etilgan belgilangan turlardagi daromadlardan tashkil topgan faoliyatlar.

2-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy natijalarni belgilaydigan asosiy guruuhlar

Mamlakatimizda ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari strategiyasiga ta'sir ko'rsatadigan daromad turlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Iste'molchilarining qaysi guruhi ta'lim xizmatlarini moliyalashtirishi muhimligini bilishimiz zarur. Masalan, ta'lim xizmatlarini moliyalashtirishga uchinchi tomon, ya'ni ish beruvchilarining jalb etilishi talaba o'qishni tugatganidan so'ng ish bilan ta'minlashni kafolatlaydi, bu esa, bitiruvchilarining bandligi bo'yicha oliy ta'lim muassasasi reytingiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tushumlar tarkibidagi manbalardan biri davlat topshirig'ini bajarish uchun byudjetdan moliyalashtirish hisoblanadi. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalari davlat topshirig'ining sifati va hajmi uchun raqobat kurashiga kirishmoqda, bu esa, pullik ta'lim xizmatlari bozoridagi kurashdan aslo qolishmaydi.

Tushumlar tarkibi oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy faoliyati xavfiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, birinchi navbatda, "byudjetning o'zida, uning daromadlari tarkibida bozor haqiqatiga mos kelmaydigan" xavf mavjud. Oliy ta'lim muassasalaridagi asosiy komponent - konvergentsiyani ko'rsatmaydi.

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ularning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan miqdorda pullik qabul qilish imkoniyati mushkulliklarga yol qo'ymaydi. Bu javobgarlik oliy ta'lim muassasalaridagi asosiy resurslar va professor-o'qituvchilar kadrlarining cheklanishiga asoslanadi. Bir qator omillar pullik oliy ta'lim muassasasi rentabellining oshishiga olib kelsa, ba'zilari esa, - norentabellikka olib keldi. Daromadlarning shakllanishidagi bu tendentsiyalar quyidagi jadvaldan ko'rinish turganidek, UrDIU uchun ham xosdir.

4-jadval

UrDIU byudjeti manbalari holati tahlili³⁶, %

Daromad tarkibi	2020-y.	2021-y	2022-y
Federal byudjet mablag'lari	39	32	24
O'z daromadlari	61	68	76
Jami	100	100	100

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, federal byudjetdan moliyalashtirishning 2020-yilda 39% dan 2021-yili 32% tushgan va 2022-yildan 24 % kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasasi federal byudjet mablag'lari umumiylar daromadining 24% ga yetib, bu esa, 2020-yilga nisbatan 15% ga kamayganligini kuzatish mumkin. Demak, yildan yilga o'z daromadlarining ustunligi oshib bormoqda, bu, bir tomonidan, davlat xarajatlari va shaxsiy daromadlarni shakllantirish uchun mas'uliyatning o'zgarishi nuqtayi nazaridan ijobjiy tendentsiyani anglatadi.

³⁶ Jadval muallif tomonidan shakllantirilgan.

Quyida keltirilgan jadvalda universitetlarning o'z daromadlari tarkibi dinamikasi universitetlarning asosiy faoliyatida pullik ta'lif xizmatlaridan olinadigan daromadlarning ustunligini ko'rsatadi va universitetning o'z daromadlarining 96-98% ini tashkil etadi, bu moliyaviy barqarorlikni aks ettiradi, tadqiqot hamda ishlanmalar va ijara daromadlarining pasayishi kuzatilmoqda.

5-jadval

UrDIU o'z mablag'lari tarkibi³⁷, %da

O'z mablag'lari tarkibi	2020-y.	2021-y.	2022-y.
O'z mablag'lari, shundan:	100	100	100
To'lov-shartnoma asosidagi ta'lif xizmatlari	98,6	97,9	96,1
Tadqiqotlar bo'yicha ishlanmalar	1,3	0,9	0,7
Ijara to'lovleri va boshqa daromadlar	0,1	1,2	3,2

Jadvalda UrDIU byudjetdan moliyalashtirish tarkibi keltirilgan. Bu daromadlar tarkibi byudjetdan moliyalashtirishda pullik ta'lif xizmatlarining ustunligini aks ettiradi. Xususan, universitet xususiy kapitalining shakllanishida to'lov-shartnoma asosidagi ta'lif xizmatlari hissasi 2020-2022-yillarda 96,1-98,6 foiz diapazonida tebranib, pasayish tendentsiyasini namoyon qilmoqda. Ijara to'lovleri va boshqa daromadlarning ulushini ortib borishi QS xalqaro reyting agentligi mezonlari bo'yicha sanoatdan tushumlar xajmining ortib borayotganidan dalolat beradi.

6-jadval

UrDIU byudjetdan moliyalashtirish tarkibi³⁸, %

Daromad tarkibi	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Davlat grantlari va subsidiyalar, jumladan:	100	100	100
Ta'lif xizmatlari uchun subsidiyalar	99	95	92
Fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar uchun subsidiya	1	6	8

Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumotlarda 92-99% ta'lif xizmatlari uchun subsidiyalar, 1-8% fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar uchun subsidiyalarga to'g'ri kelmoqda.

Bunda, birinchi navbatda, universitetning asosiy missiyasi aksariyat milliy oliy ta'lif muassasalari kabi kadrlar tayyorlash hisoblanib, daromadlarning asosiy ulushi ushbu faoliyati hisoblanadi.

Ikkinchidan, to'lov-shartnoma asosidagi ta'lif xizmatlari bilan bog'liq xarajatlarning samarali ijrosi, ushbu manbaning xususiy kapitalini shakllantirishdagi hissasini yuqori bo'lishini ta'minlamoqda.

Oliy ta'lif muassasalarini moliyalashtirishning eng muhim manbalaridan biri bu o'z mablag'iga ega bo'lishdir. Rossiya universitetlarida xayriya mablag'larining ulushi asta-sekin o'sib bormoqda. Oxirgi paytlarda oliy o'quv yurtlarida jamg'arma fondlarini shakllantirishning barqaror tendenstiyasi kuzatilmoqda va yuqori ixtisoslashgan universitetlar ham xayriya fondiga katta qiziqish bilan qaramoqda.

Ayni paytda pullik ta'lif xizmatlarining ustunligi oliy ta'lif muassasalarida asosiy ahamiyatga ega. Rentabellikga erishish uchun oliy ta'lif muassasalari oldida ilmiy va innovatsion faoliyatdan olinadigan daromadlar ulushini 30 foizgacha oshirishga e'tibor qaratish lozim, daromadlar tarkibini diversifikatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

³⁷ Jadval muallif tomonidan shakllantirilgan.

³⁸ Jadval muallif tomonidan shakllantirilgan.

Oliy ta'lim muassasalari daromadlarini diversifikatsiya qilish yo'nalishlarini hisobga olgan holda, ko'rsatilgan masalalarni quyidagi tarzda taklif etamiz.

Oliy ta'lim muassasalarinida ilmiytadqiqot ishlarni jadallashtirish va tadqiqotdan olinadigan usushlar miqdorini ko'paytirish;

Marketing tuzilmasini yaratish, shu bilan birga tadqiqot ishlari yakuniy mahsulot bozoriga yo'naltirilgan loyiha yondashuviga asoslanishi kerak. Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun maqsadli fondlarni shakllantirish maqsadga muvofiq.

3-rasm. Daromadlarni diversifikatsiya qilish yo'nalishlari

Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda yuqorida ko'rib chiqilgan daromadlardan tashqari, oliy ta'lim muassasasining xarajatlari katta rol o'ynaydi.

Bugungi kunda nafaqat raqobatbardosh bo'lish, balki ta'lim xizmatlari bozorining yangi talablariga javob berish imkoniyatini beradigan daromadlarni boshqarishning yangi modellaridan foydalangan holda oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish masalasiga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda. Mehnat bozori, raqobatbardoshlik va moliyaviy barqarorlikni saqlash muhim masala hisoblanadi. Bu oliy ta'lim muassasalaridan daromadlarni boshqarish bo'yicha yangi yechimlarni izlashni talab qiladi.

Zamonaviy sharoitda byudjet mablag'larining aniq yetishmasligi va shuning uchun muqobil moliyalashtirish manbalarini faol izlash kuzatilmoqda, bu, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalariga xosdir. Oliy ta'lim sohasida asosiy daromad manbai bo'lgan innovatsion faoliyat shakllari yetarli emas. Masalan, biznes-parklar, biznes-inkubatorlar, innovatsion markazlar va klasterlar yetarli darajada rivojlanmagan.

Ta'lim va innovatsiyalar sohasidagi amaldagi qonun hujjalarda oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan turli huquqiy cheklovlar nazarda tutilgan.

Oliy ta'lim muassasalari ko'chmas mulkni ijara berish bo'yicha amaldagi qonunchilik normalarini qo'llashda yuzaga keladigan huquqiy ziddiyatlar byudjet mulkidan foydalanishdan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarni tartibga solish uchun amaldagi qonunchilikni isloh qilish zarurligini ko'rsatadi.

Daromad keltiradigan faoliyatdan olingan mablag'lardan foydalanishning mumkin bo'lgan chegaralari, shuningdek, ulardan foydalanish tartibi bo'yicha mumkin bo'lgan cheklovlar noaniqligicha qolmoqda.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagilardan shuni ta'kidlash mumkinki, oliy ta'lim muassasalarining daromad keltiruvchi faoliyatidan olingan mablag'larning sarflanishi ustidan davlat nazoratining mavjud usullari, shu jumladan, jamoatchilik nazorati kabi nazoratning o'rnatilishi ham ilmiy qiziqish uyg'otadi. Ushbu holatlar daromad keltiradigan faoliyatning paydo bo'lishining huquqiy shartlarini rasmiylashtirishga, uning huquqiy mohiyatini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta'lim muassasalarining daromad keltiruvchi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning qiyosiy tahlilini amalga oshirish

"daromad keltiradigan faoliyat" tushunchalari bilan bog'liq tushunchalarni farqlash, ta'lif tizimidagi ta'lif muassasalarining daromad keltiruvchi faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik me'yorlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Oliy ta'lif muassasalarini byudjetdan moliyalashtirish muhim rol o'ynaydi, chunki boshqa manbalarning turli sabablariga ko'ra hali ham zaifligi mavjud. Amalda, oliy ta'lif muassasalarini byudjetdan moliyalashtirishni mustahkamlash uchun turli yondashuvlar mavjud: birinchidan, ta'lif davlat byudjet xarajatlari hisobiga qoplash; ikkinchidan, maqsadli yig'imlarni joriy etish yoki qat'iy maqsadli soliq daromadlari doirasida belgilash.

Shunday qilib, ta'lif, ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar sohasidagi faoliyatning xilma-xilligi oliy ta'lif muassasalari daromadlarining oshishiga va jamiyatning ushbu sohalarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga bevosita ta'sir qiladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Xususan, hozirgi sharoitda aksariyat O'zbekiston oliy ta'lif muassasalarida akademik faoliyatning rivojlanishi ular daromadlarining shakllanishida to'lov kontrakt asosidagi daromadlarning jami daromadlardagi ulushining yuqori ko'rsatkichini ta'minlamoqda. Lekin o'rta istiqbolda universitetlar raqobatbardoshligini oshirish universitetlar oldiga "Tadbikorlik universiteti" nomli ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish natijasida, ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish hisobiga daromadlar tarkibini yanada optimallashtirish vazifasini yuklaydi.

Adabiyotlar / Jumepamypa/ Reference:

Qaror (1999) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrda 414-son qarori // 01.01.2023 y., 07/23/471/0001-son bilan yangilangan. // <https://lex.uz/docs/319286>.

Rayzberg B.A., Lozovskiy L.Sh., Starodubtseva E.B. (2007) Sovremennui ekonomicheskiy slovar. - 5-chi to'plam, -M.: Infra-M. - 495 b.

Jean Dellemotte (2009) Adam Smith's "Invisible Hand": Refuting the Conventional Wisdom. 4-chi to'plam, In L'Économie politique Volume 44, 28-41 b.

Lapusta M.G. (2002) Sovremennyy finansovo-kreditnyy slovar /Pod obshch. red. M. G. Lapusty, P. S. Nikolskogo. – 2-chi nashr., qo'shimcha. – M.: Infra-M.. – 568 b.

Likhacheva O.N. (2003) Korxonada moliyaviy rejalashtirish: Proc. nafaqa. – M.: MChJ "TK Velby", – 203 b.

Kolmykova E. S. Byudjetlashtirish moliyaviy vosita sifatida rejalashtirish // Yosh olim. – 2014. – No3. – 506 b.

Gryaznova A.G., Markina E.V., Sedova M.J.I. va boshqalar; (2012) Financi: darslik / A. G. Gryaznova, E. V. Markina tomonidan tahrirlangan. - 2-nashr, qayta ko'rib chiqilgan. va qo'shimcha - M.:Financi i statistika, -496 b.

Karaseva I.M. (2006) Moliyaviy menejment: darslik. uchun qo'llanma ixtisosligi "Tashkilotni boshqarish / I.M. Karaseva, M.A. Revyakina; Yu.P. Aniskina tomonidan tahrirlangan. - Moskva: Omega, - 335 b.